MA’NAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Karimov Tuyg‘un Jamanazarovich
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash innovatsion texnologiyalarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda innovatsion texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi roli bilan bog‘liq ekanligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy xavfsizlik, mafkuraviy xavfsizlik, globallashuv, innovatsiya, ma’naviyat, raqamli kommunikatsiya, transformatsiya.

Bugungi kunda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash innovatsion texnologiyalarining o‘ziga xos jihatlari masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda murakkab, ko‘p qatlamli va tizimli yondashuvni talab etuvchi fundamental muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonni anglashda ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni tahlil qilish zarur bo‘lib, bunda inson ongining transformatsiyasi, ijtimoiy qadriyatlar tizimining evolyusiyasi hamda global axborot makonining kengayishi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida ma’naviy jarayonlar endilikda an’anaviy institutlar doirasidan chiqib, raqamli kommunikatsiya tizimlari orqali shakllanayotgan yangi ijtimoiy-madaniy muhitda rivojlanmoqda. Mazkur jarayonning mohiyati haqida tadqiqotchi M. Toshbekova “globallashuv jarayoni bilan birga milliy

g‘oya, mafkura va e’tiqod tizimlariga nisbatan ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotganini inkor etib bo‘lmaydi”[1], deb ta’kidlaydi. Ushbu fikr globallashuv sharoitida ma’naviy xavfsizlik masalasining keskinlashuvi va uning texnologik omillar bilan bog‘liqligini asoslaydi. Chunki zamonaviy texnologiyalar inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida g‘oyaviy ta’sir mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Innovatsion texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ular ma’naviy jarayonlarni tezlashtiruvchi va transformatsiyalovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali g‘oyalar global miqyosda soniyalar ichida tarqaladi, bu esa mafkuraviy kurashning intensivligini oshiradi. Tadqiqotchi A.Dusboyev ushbu jihatni quyidagicha izohlaydi: “kiberxavfsizlik faqat texnik yoki huquqiy emas, balki g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan ham ta’minlanishi zarur”[2]. Bu esa innovatsion texnologiyalarni ma’naviy xavfsizlik tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar ma’naviy jarayonlarning mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilim va axborot asosiy resursga aylanib, ijtimoiy ongni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Bu holatni tadqiqotchi O.Xodjayev “globallashuv jarayonida g‘oyaviy tarbiya sust bo‘lgan taqdirda inson ongida g‘oyaviy bo‘shliq yuzaga keladi va bu bo‘shliqni yot g‘oyalar egallaydi”[3] deb izohlaydi. Demak, innovatsion texnologiyalar nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki ma’naviy jarayonlarning ichki strukturasini belgilovchi omilga aylanmoqda.

Globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalarning yana bir muhim jihati – ularning ikki tomonlama xarakterga egaligidir. Bir tomondan, ular ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, ular orqali dezinformatsiya, axborot manipulyatsiyasi va mafkuraviy ekspansiya amalga oshirilmoqda. Tadqiqotchi F.Qo‘ysinova bu haqda “radikal mafkuralar inson ongiga ta’sir ko‘rsatish orqali global muammoga aylanmoqda”[4] deb ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini ochib beradi.

Ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda innovatsion texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi roli bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchi O. Ortiqov “mafkuraviy immunitet shaxs va jamiyatni zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qiluvchi tizimdir”[5] deb ta’kidlaydi. Zamonaviy sharoitda ushbu immunitet raqamli savodxonlik, tanqidiy tafakkur va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalari orqali shakllanadi. Demak, innovatsion texnologiyalar nafaqat tahdid manbai, balki himoya mexanizmi hamdir. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida milliy kontent yaratish va uni global axborot makonida targ‘ib qilish imkoniyati ham kengaymoqda. Bu jarayon ma’naviy jarayonlarning barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki milliy kontent orqali jamiyatning qadriyatlar tizimi mustahkamlanadi va yot g‘oyalarga qarshi barqarorlik shakllanadi.

Globallashuv sharoitida ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash innovatsion texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizimda ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar o‘zaro ta’sirda rivojlanib, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotini belgilovchi asosiy omilga aylanadi. Innovatsion texnologiyalarni ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, ularni ongli ravishda boshqarish hamda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish orqali globallashuv sharoitida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Jahon miqyosidagi o‘zgarishlar zamirida yotgan asosiy omillardan biri - globallashuv jarayonlarining tezlashuvi va chuqurlashuvidir. U nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy jihatdan, balki ong, g‘oya, tafakkur va madaniyat sohalarida ham inson hayotini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda globallashuvning aql va ma’naviyatni transformatsiya qiluvchi kuch sifatida baholanishi bejiz emas . Ayniqsa, axborot oqimi, raqamli tizimlar va sun’iy intellekt texnologiyalari orqali inson ongiga ta’sir qilish usullarining kengayishi globallashuvning yangi bosqichiga olib keldi, bu bosqich informatsion va g‘oyaviy globallashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tendensiya nafaqat dunyoviy axborot muhitini qayta shakllantirmoqda, balki mafkuraviy xavfsizlik tushunchasiga ham yangi yondashuvlarni taqozo qilmoqda. Endi mafkuraviy xavf bu tashqi kuchlar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri tajovuz emas, balki virtual va kognitiv makonda amalga oshiriladigan, shaxsning idrokini, qadriyatlarini va dunyoqarashini o‘zgartirishga qaratilgan ta’sir shaklidir. Bu esa, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda nafaqat ijtimoiy institutlar, balki innovatsion texnologiyalarning o‘rnini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Globallashuv zamonaviy dunyoda barcha jarayonlarning o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sirchan bo‘lib borishini anglatadi. U faqat iqtisodiy integratsiya emas, balki dunyoqarashlar, ma’naviy tushunchalar, madaniyatlar va g‘oyalar oqimi hamdir. Jahon axborot makonidagi jadal almashinuv insonning shaxsiy ongiga ta’sir qiluvchi omilga aylangan. Natijada, har bir shaxs va jamiyat o‘z milliy ongini himoya qilishga, g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga muhtoj bo‘lib qolmoqda. Bu esa, mafkuraviy xavfsizlikning yangi uslubda innovatsion texnologiyalar vositasida ta’minlanishi zarurligini ko‘rsatadi.

Innovatsion texnologiyalar - bu yangi formatdagi vositalar va yechimlar to‘plamidir. Ular qatoriga katta ma’lumotlar (Big Data), suniy intellekt (AI), Tabiyiy til jarayonlari (Natural Language Processing (NLP)), narsalar internet (IoT), Blockchain, Machine Learning, Cloud computing kabi tizimlar kiradi. Avvallari bunday texnologiyalar faqat iqtisodiy rivojlanish yoki avtomatizatsiya maqsadlarida qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ular orqali inson tafakkuri, axborot qabul qilish qobiliyati va hatto shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatish imkoni paydo bo‘ldi. Masalan, axborot xiraliklarini avtomatik aniqlash, feyk ma’lumotlarni filtrlash, kognitiv xatarlarni oldini olish yoki radikal g‘oyalarni tarqalishini nazorat qilish kabi vazifalarda bu texnologiyalar markaziy o‘rin tutadi. Shu jihatdan qaralganda, innovatsion texnologiyalar mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda faqat vosita emas, balki mustaqil subyekt sifatida namoyon bo‘la boshladi. Ular inson ongidagi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va unga munosabat bildirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, ma’naviy va axloqiy muhitni tarbiyalashda yangi bosqichni boshlab beradi. Texnologik globallashuvning eng sezilarli jihati bu axborotni tarqatish va nazorat qilish mexanizmlarining transformatsiyasida namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan, bu jarayon demokratik axborot muhitini rivojlantirmoqda, ikkinchi tomondan esa mafkuraviy ekspansiya, dezinformatsiya, soft power ta’siri va kognitiv hujumlarga yo‘l ochmoqda. Bu holatda har qanday innovatsion vosita ikki yuzli qilich singari, ham ijobiy, ham salbiy funksiyaga ega.

O‘zbekiston Respublikasining keyingi yillardagi islohotlar jarayonida “ma’naviy yangilanish”, “ijtimoiy ong modernizatsiyasi”, “inson kapitali” kabi tushunchalar davlat siyosatining markaziga aylanmoqda[6]. Bu jarayonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik milliy istiqlol g‘oyasining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yoshlar ongi va qalbini asrash - eng muhim va hal qiluvchi vazifalardan biri” hisoblanadi[7]. Innovatsion texnologiyalar — sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar tahlili (Big Data), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), virtual reallik (VR/AR), blokcheyn tizimlari, neyrointerfeyslar va kiberxavfsizlik vositalari — nafaqat iqtisodiy yoki texnik sohalarda, balki ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda ham strategik resursga aylanmoqda. Masalan, sun’iy intellekt yordamida yolg‘on axborotni (feyk), ijtimoiy tarmoqlardagi radikal kontentni, populistik yondoshuvlarni va manipulyatsiyani avtomatik ravishda aniqlash imkoni tug‘ildi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Kiberxavfsizlik markazlari, ta’lim muassasalari qoshidagi media va targ‘ibot laboratoriyalari aynan axborot muhitini monitoring qilish, yoshlarning raqamli immunitetini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi vazifalarga yo‘naltirilmoqda. Masalan, UNESCOning “Media and Information Literacy” (MIL) dasturi tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali yoshlar orasida “axborot immuniteti”ni mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbekiston ko‘p konfessiyali va madaniy kesishuv nuqtasi bo‘lgani sababli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan sezuvchan hudud hisoblanadi. Bu o‘rinda mutafakkirlar ta’biri bilan aytganda, “mafkura — har qanday millatning jon tomiri”dir. Shu sababli, NLP asosida kontent tahlili, Big Data orqali yoshlar kayfiyatini baholash, individual targetlash vositalari — zamonaviy profilaktika va ta’sir usullaridir. Shaxsiy ilmiy nuqtayi nazarimizga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar mafkuraviy xavfsizlik sohasida faqat instrument emas, balki metodologiyaning o‘ziga aylanmoqda. Ya’ni, sun’iy intellekt nafaqat ma’lumotni qayta ishlash, balki g‘oyalar raqobatida inson ongi uchun kurashda asosiy vositaga aylanmoqda. Bu holat “aqllar urushlari” degan atamani hayotga tatbiq etmoqda. Umumlashtirib aytganda, O‘zbekistondagi mafkuraviy xavfsizlik siyosatini innovatsion texnologiyalar bilan chuqur integratsiyalashtirish — bu zamonaviy davlat qurishdagi strategik vazifadir. Ma’naviy barqarorlikni raqamli himoya vositalari bilan ta’minlash, global axborot maydonida milliy manfaatlarni ilmiy va texnologik asosda ifodalash, yosh avlod ongida raqobatbardosh intellektual immunitetni shakllantirish - bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshbekova M.X. Globallashuv jarayonida mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish omillari: ilmiy maqola // Oriental Renaissance. – 2021. – B.179–184.

2. Dusboyev A.T. Axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlikni ta’minlashning g‘oyaviy-mafkuraviy jihatlari: ilmiy maqola // Oriental Renaissance. – 2025. – B.384–388.

3. Xodjayev O.Sh. Yangi O‘zbekistonda g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar intensivlashuvida g‘oyaviy tarbiyaning ahamiyati: ilmiy maqola // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2024. – B.60–63.

4. Qo‘ysinova F.O. Radikallashuv xavfli ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy hodisa sifatida: ilmiy maqola // Alfraganus xalqaro ilmiy jurnali. – 2024. – B.60–63.